



KOMPITENSIYA VA AXBOROT KOMPITENSIYA ATAMALARINING UZVIY BOG'LIQLIGI OLIMLARNING QARASHLARIGA TAHLIL

D.H.Pazilova

Toshkent amaliy fanlar universiteti Informatika kafedra kata
o'qituvchisi pazilovadilnoza1014@gmail.com
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7927963>

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2023
Accepted: 14th April 2023
Online: 25th April 2023

KEY WORDS

Kompetensiya, Interactive
professionalism, Axborot
kompetentsiyasi, psixologiya
ICT–competence, digital
competence, digital literacy),
digital skills.

ABSTRACT

Maqolada kompetensiya atamasiga olimlarning fikr mulohazalari ularning qarashlariga tahlillar bayon qilingan. Shu qatorda aynan qaysi olimlarni fikrlari ko'rib chiqilganini ko'rishimiz mumkin: G.C.Vyalikova, I.A.Zimniyni, S.I. Ojegov va N.Yu. Shvedovoy, T.V. Pankova, A.V.Xutorskoy, "Uslubiy atama va tushunchalarning yangi lug'ati"da E.G.Azimov va A.N.Shukin tadqiqot ishlari o'rganilib ilmiy tahlil qilindi.

Bugungi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan yangi ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonining tez takomillashuvi va texnologik muhitlarga moslashishini taqozo etdi. Bu esa, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj pedagogning kasbiy kompetentligi negizida axborot kompetentlik ham namoyon bo'lishi zarurligini taqozo etmoqda.

Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyati bilan integratsiyaga kirishishi sharoitida kasb–hunar maktabi pedagog xodimlarining axborot kompetentligini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratildi, modulli ta'lim texnologiyalarini qo'llash, ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida strukturalashtirish, ta'lim mazmunini ilmiy tashkil etishga erishilmoqda. Shu bilan birga, kasb–hunar maktabi pedagog xodimlarini kasbiy rivojlantirishda ularning tashabbuckorligini oshirishning "Interactive professionalism" kabi yangicha shakllarga tayangan holda tayyorlashda ijtimoiy media tarmoqlardan foydalanishning ahamiyati dolzarb hisoblanadi.

Axborot kompetentsiyasini xorijiy hamkasblar raqamli kompetensiya (digital competence), raqamli savodxonlik (digital literacy), raqamli ko'nikmalar (digital skills), axborot kommunikatsiyasi kompetentsiyasi (ICT–competence), axborot kompetentsiyasi (informational competence) tushunchalar bilan izohlaydilar. Bu tushunchalar 2008 yilda tashkil etilgan ta'lim texnologiyalari bo'yicha xalqaro jamiyat (International Society for Technology in Education) va YuNESKO tomonidan taklif qilinganligi sababli turlicha izohlandi. «Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari ilk marta pedagogik lug'atda 1357 yilda qo'llanilgan, ularning farqlanishi AQSH ta'lim tizimida yuzaga kelgan mavjud muammoning keng ko'lamda talqin qilinishi bilan bog'liq [1].



Ushbu jixatlar manbalar asosida tahlil qilinganda “kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalariga bo’lgan yondashuvlar turlicha bo’lganligini ko’rishimiz va shu o’rinda ayrim bahsli jihatlari ham mavjud.

A.V.Xutorskoyning fikricha, kompetentsiya – “bitiruvchi ta’limiy tayyorgarligiga qo’yiladigan talablarda aks etadigan shaxsning o’zaro aloqador sifatleri majmui”. “Kompetentlik” tushunchasini quyidagicha izoh bergan “SHaxs tomonidan tegishli kompetentsiyalarning o’zlashtirilishi” ya’ni ta’limiy tayyorgarlik negizida aks etuvchi o’zaro aloqador sifatlar” [5]. Bunda ta’limiy tayyorgarlik negizida aks etuvchi o’zaro aloqador sifatlar vakolatiga ega bo’lishi zarur.

T.V. Pankovning fikricha kompetentsiya – “muayyan fan sohasini bilish, uning kategoriyalari yordamida fikrlashni ifodalovchi, ta’lim jarayonida shakllangan bilim, ko’nikma, malakalar majmui”. “Kompetentlik” tushunchasining izohi esa, “mavjud kompetentsiyalar (yoki kompetentsiyalar majmui) asosida sub’ektning qandaydir faoliyatni bajarishga bo’lgan qobiliyatini aniqlovchi o’ziga xos ta’lim” [4], ya’ni kompetentsiya – biron-bir sohadan xabardorlik, u bo’yicha amaliy faoliyatni samarali tashkil eta olish vakolati hisoblanadi.

S.I. Ojegov va N.Yu. SHvedovoylar tomonidan kompetentsiya – “shaxs tomonidan juda yaxshi o’zlashtirilgan masalalar doirasi, qandaydir sohadan xabardorlik, etakchilik” ta’riflari bilan e’tirof etilgan. Bu tushuncha “masalalar doirasi” deya qabul qilinsa, tadqiqotchi tomonidan o’rganilgan va yaxshi o’zlashtirilgan muammo (masala) sifatida tushunish yuzaga keladi, vaholanki, “kompetentsiya” – ma’lum bir muammoning o’zlashtirilishini emas, balki muayyan soha, yo’nalish asoslaridan puxta xabardorlikni anglatadi[3].

I.A.Zimniyning fikricha kompetentsiya – “ayrim ichki potentsial, yashirin psixologik yangilanish (bilim, tasavvur, harakat dasturi, qadriyatlar va munosabat)lar tizimi”. Kompetentlik tushunchasining izohi quyidagicha ta’riflagan “amalda qo’llanilmayotgan yashirin, potentsial bilimlar, shaxs ijtimoiy–kasbiy faoliyatining intellektual va shartlangan tajribalaridan kelib chiqadigan bilim, ko’nikma, malakalari” [6, 11–bet] shaklida ifodalaydi.

G.C.Vyalikova “kompetentsiya” tushunchasini “muayyan predmet bo’yicha axborotli o’zlashtirilgan chuqur bilimlar va qandaydir vakolat, huquqlar doirasi” [2] deb ta’riflaydi. U o’ziga xos ta’lim, shaxsning qobiliyati va alohida ajratilgan kompetentsiyalar oraliq’ida qandaydir vazifani bajaruvchi tavsifi tushunchalarini keltiradi.

Bizning fikrimizcha, ta’rifni qisman to’ldirish lozim, chunki, kompetentsiya negizida faqatgina bilimlar emas, balki ko’nikma hamda malakalar ham aks etadi. Agar muallif “bilimlar” negizida ham nazariy ham amaliy bilimlarni nazarda tutgan bo’lsa, u holda fikrni “nazariy va amaliy bilimlar” shaklida aniq ifodalashi zarur edi.

“Uslubiy atama va tushunchalarning yangi lug’ati”da E.G.Azimov va A.N.Shukin kompetentsiyaga quyidagi ta’riflarni beradi: “muayyan fanni o’qitish jarayonida shakllangan bilim, ko’nikma, malakalar yig’indisi, shuningdek, u yoki bu fanni o’qitishning u yoki bu turini bajarish qobiliyati. O’zlashtirilgan bilim, ko’nikma, qobiliyatga asoslangan faoliyat...” [1; 107–bet]

Shunday qilib, kompetentsiya va kompetentlikning turli ta’riflarini ko’rib chiqib, ushbu tadqiqotda E.G.Azimov va A.N.Shukin uslubiy atamalar va tushunchalarning yangi lug’atida va ushbu tadqiqotda yuqorida keltirilganlarga asoslanib, tadqiqotchi fikricha, kompetentsiya



amalga oshiriladigan kompetentlikdan farqli o'laroq, faoliyatda namoyon bo'ladi, deb talqin qilinadi [1].

Umumiy psixologiya nuqtai nazaridan, faoliyat – bu “ma'lum bir ehtiyojni qondiradigan, motivga bo'ysunadigan va insonning dunyoga mustaqil munosabatini amalga oshiradigan” faol, maqsadli jarayonlar tizimidir.

Shu nuqtai nazardan, axborot–kommunikativ kompetentlikni shaxs axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida olib qarash mumkin. Yuqoridagi barcha mualliflar “kompetentlik” tushunchasini ifodalashga to'g'ri yondashgan, tushuncha negizida muayyan kompetentsiyalarga egalik, amalda ulardan samarali foydalanish nazarda tutiladi.

Pedagogik xodimlarning axborot kompetentligini rivojlantirish kasbiy–pedagogik vazifalarni va muammoli vaziyatlarni hal qilishning nostandart usullari va vositalari, amaliy fikrlash madaniyati, kasbiy sub'yektivlikni, axborot–tahliliy faoliyatda tajriba, innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatini shakllantiradi.

References:

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: Изд-во ИКАР, 2009. – 107 с.
2. Вяликова Г.С. Педагогическое стимулирование профессиональ-ной компетентности учителя в условиях заочной формы обучения: автореф. дисс...докт. пед. наук. – Рязань, 2006. – 29 с.
3. Ожегов С.И. Словарь русского языка: около 53000 слов // Под общ. Ред. Проф. Скворцова Л.П. -24-е изд., испр. – Москва: ООО “Изд-во Оникс”, 2007. – 588 с.
4. Панкова Т.В. Сущность, содержание и структура информационно-коммуникационной компетентности студента ВУЗа. // Научно-метод. элек. ж. «Концепт». – Москва: 2013. – Т.4. – 206-210 с.
5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Интернет-журнал. “Эйдос” <http://eidos.ru/journal/2002/0423.htm>.
6. Зимний И.А. Ключевые компетенции-новая парадигма результата образования // Ж.Эксперимент и инновации школе. – М.: 2009. №2. – 45 с.